

XUDOYBERDI TO‘XTABOYEVNING BOLALAR ADABIYOTIDAGI O‘RNI VA “MUNGLI KO‘ZLAR” ASARI HAQIDA MULOHAZALAR

Jumaboyeva Jasmina Olim qizi

O‘z-Fin pedagogika instituti talabasi.

Ilmiy rahbar: O‘z-Fin pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi kafedrasi

assisstanti M. Mirsanova

Tel: +998995256863

moxiramiranova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xudoyberdi To‘xtaboyevning bolalar adabiyoti taraqqiyotida tutgan o‘rni, bola ruhiyatidagi o‘ziga xosliklar, ijodkorning “Mungli ko‘lar” asari tahlili yuzasidan fikr-mulohazalar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Mungli ko‘zlar, muhit, bola, ruhiyat, o‘qituvchi, tarbiya, ma’naviyat, hajviya, humor.

Xudoyberdi To‘xtaboyev-o‘zbek adabiyotining zamonaviy, jonkuyar, sevimli yozuvchisidir. Yozuvchi mahorati haqida ko‘p gapirilgan, men ijodkorni shaxs sifatida ham yozuvchi sifatida ham juda yuksak saviyali inson deb bilamiz. U hozirgi zamon o‘zbek bolalar adabiyotida sarguzasht va fantastika janlarining rivojlanishiga katta hissa qo‘sghan va bu sohani yanada rivojlantirganligi kitobxonlarga ma’lum. Adib asarlari yumorga boyligi bilan, hajviyaning ustunligi bilan ham qadrlanadi.

Adabiyotshunos olim M.Qo‘shtonov Xudoyberdi To‘xtaboyev haqida: “...hajviy asarlari, aytish mumkin bizning adabiyotshunosligimizda hajviy janr to‘g‘risida uning imkoniyati va mushkullari haqida birinchi bo‘lib muhim va asosli fikrni aytdi. Xudoyberdi o‘z asarlari uchun Respublika bo‘ylab har xil sohadan material tanlab, tanlangan materiallar ustida qunt bilan ishlar va felyetondan felyetonga o‘z mahoratini oshirib borar edi.”¹

Gap shundaki, X.To‘xtaboyev “Sariq devni minib”, “Sariq devning o‘limi”, “Mungli ko‘zlar”, “Shirin qovunlar mamlakati”, “Jannati odamlar” kabi asarlari orqali el mehriiga tushdi. Bolalar hayoti, ularning o‘ziga xos xarakter-xususiyatlari, ruhiyati nihoyatda jonli, qiziqarli tarzda mahorat bilan tasvirlanishi jihatidan ajralib turadi. Ma’lumot o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, Xudoyberdi To‘xtaboyev o‘zbek bolalar adabiyotini jahon miqyosiga olib chiqqan yozuvchidir.

¹ M.Qo‘shtonov, Adabiyot nazariyasi. Sharq, Toshkent–2004

Xudoyberdi To‘xtaboyevning ko‘plab asarlari, hikoya va qissalarida bosh ro‘llarda doimo bolalar turadi. Yozuvchining “Mungli ko‘zlar” asariga to‘xtalib fikr mulohazalarimizni davom ettirsak. romanining qahramonlari o‘ziga xos yangicha ma’no kasb etadi va shu jihatni bilan ijodkorning bundan avval yaratgan asar qahramonlaridan tubdan farq qiladi. Romandagi bolalar shaharda ulg‘ayib, hech qanday muhtojlik ko‘rmagan arzanda bolalar bo‘lib, yozuvchi unda bir oilaning tanazzuligini ko‘rsatib bergan. Moliyaviy yutuqlarga ega bo‘lgan ota-onalarining aytgan gapi barcha yerga o‘tar, shu sababdan ham bolalar ruhiyatida kibr yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ota-onsa farzand oldidagi burchlari faqat ularni yedirish va kiydirishdan iborat deb bilar edilar. Aslida ham shundaymi? Ota-onaning burchi faqat qorin to‘ydirishmi? Bu burchga juda ko‘p narsa kiradi, yedirish, kiydirish, ilm olishiga sharoit yaratish. Uyda ham shunga yarasha muhit yaratish, hayotga muhabbat bilan qarashni o‘rgatish. Moddiy narsalar hayotimizning mazmunini tashkil qilmasligini, baxtli yashash uchun faqatgina moddiyat yetmasligini tushuntirib berish va amalda ham kundalik hayotda bolalarga ko‘rsata olish lozim. To‘g‘ri tarbiya berish, to‘g‘ri yashash uchun avvalo o‘sha ota-onaning o‘zida shu narsalar bo‘lishi kerak. Boylikka hirs qo‘ygach ota-onaning ko‘ziga bu narsalar ko‘rinmaydi. Ular boyiganlari sayin o‘zlarini boshqara olmay qolardilar. Zafar ota-onasi bilan faxrlanar, qalbi g‘ururga to‘la bo‘lib ularga o‘xshashni juda istardi. Oilaning to‘ng‘ich farzandi Akbar esa tug‘ma nogiron bo‘lsa-da, ularning bu ishlari uzoqqa bormasligini ich-ichidan his qilardi. Shuning uchun ham qaysarlik qilib ovqat yemas, oyisi olib bergen kiyimlarni ham kiymas edi. Akbar qalbi butun va sergak bola edi. U to‘g‘ri so‘zlikni, halollikni muallimi Atoulla Isayevichdan o‘rgangan edi. Akbar ham Zafar ham ota-onalarini birdek yaxshi ko‘rishar edi. Faqat Akbargina otasining poraxo‘r, onasining esa chayqovchi ekanligini sira ham hazm qilolmasdi. Akbar qachondir bu ishlarning oqibati yaxshi bo‘lmaslididan qo‘rqib yashardi. Akbar aytgandek ularning boshiga og‘ir kunlar tushadi. Otasi pora bilan qo‘lga tushadi, noqulay savdo bilan shug‘ullanuvchi tillafurush onaning jinoyatlari fosh bo‘la boshlaydi. Akbar oilasiga faqat yaxshilikni ravo ko‘rardi, lekin ularning ustidan yuqoriga yozib yuboradi. Bolaning beg‘ubor qalbidan o‘tgan narsa shu ediki: yuqori organlarga murojat qilsam ular ota-onamni to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi, ularga qilayotgan ishlarining noto‘g‘riligini tushuntirib qoyadi xolos deb o‘ylaydi. Ammo hayot bola qalbidek beg‘ubor emas. U bu harakati bilan shunchaki o‘z haqiqatini anglatmoqchi edi. Ammo fojia ustiga fojia yuz beradi: onasi vafot etadi, otasi esa uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilinadi, bunaqa hodisalardan bolalarning ruhi cho‘kadi. Nigora ham og‘ir xastalikka yo‘liqadi, Zufar esa ortiqcha kibrga berilib xatosi tufayli fojiali halok bo‘ladi. “Do‘stim” deb yurganlarning xiyonatiga uchraydi. Dushman deb yurgan Atoulla muallim Zafarga ko‘p marhamatlar ko‘rsatadi. Ko‘p qiyinchiliklar ko‘radi va ulardan xulosalar chiqaradi. Oilasining barbod bo‘lishiga hissa qo‘sghan, ikki yirik boyning uyiga o‘t

qo‘yadi va o‘z oyoqlari bilan mahkamaga boradi. Ammo uning ruhiyatini zo‘riqqanlikda, natijada asablari charchab jinni bo‘lganlikka yo‘yadilar. Oqibatda ruhiy kasallar shifoxonasi bemoriga aylanadi va ko‘p ko‘rgiliklarni boshidan kechiradi. Bu voqealar atrofida akasi Akbar ham o‘ziga o‘t qo‘yadi. Zafar hamma narsasini: dang‘illama uyini, ota-onasini, o‘smirlilik davrini akasini, ukasi Zufarni yo‘qotadi.

Xulosa qilib aytganda yozuvchini boylikka hirs qo‘yish, odamlar haqqini yeish, insonga hech qachon baxt bermasligini ilgari suradi.

Xudoyberdi To‘xtaboyev bu asari orqali bola ruhini parvarishlab, go‘zal ishlov berish ham, uni tanazzulga olib borish ham ijtimoiy muhitdan ekanligiga ishora qiladi. Bu ijtimoiy muhitni yaratuvchi shaxslar ota-onalardir. X. To‘xtaboyev bola ma’naviyatini shakllantirishda adabiyotning qay darajada o‘rni bor degan savolga shunday javob bergen edi: “Bolani nimaga o‘rgatishimizdan qat’i nazar, xoh iqtisodda xoh kasb-hunarga bo‘lsin, ma’naviyatni yoddan chiqarmasligimiz kerak. Eng avvalo, ma’naviyat masalasiga qayg‘urish kerak. Ma’naviyatni shakllantirmay turib, iqtisodni shakllantirsangiz yo chayqovchi, yo olg‘ir, yo birovning hisobiga boyuvchilar paydo bo‘ladi.” Ma’naviyatning o‘rni nihoyatda beqiyosdir.

Bu fikrlarda yetarlicha asos bor. Bu asar o‘sib kelayotgan yosh avlodni mehnatsevarlikka chaqiradi, halol mehnati bilan rizq-nasibasini topib, boriga shukur qilishga undaydi. Ma’naviyat bor oilada bolalar ma’nana yetuk, barkamol bo‘lib ulg‘ayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. Darslik. AVTO-NASHR. Toshkent–2006.
2. To‘xtaboyev X. Mungli ko‘zlar, Yangi asr avlodi, Toshkent –2017.
3. Jamilova B.S. O‘zbek bolalar adabiyoti, Noshir, Toshkent–2019.
4. Qo‘sjonov M. Adabiyot nazariyasi. Sharq, Toshkent–2004